

**“TASDIQLAYMAN”**

**“Olmaliq KMK”AJ  
Boshqaruv raisining  
Iqtisodiyot, moliya va transformatsiya  
bo‘yicha birinchi o‘rinbosari**

**B.A. MAMATOV  
“03” yanvar 2025 yil**

**“Olmaliq KMK” AJ da 2024-yil davomida  
(1-yanvardan – 31-dekabrga qadar bo‘lgan davr) uchun  
Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining amal qilishi haqida  
UMUMIY HISOBOT**

**I. “Olmaliq KMK” AJ Korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar dasturi bajarilgani  
to‘g‘risida umumiy axborot**

Hisobot davrida Kombinat tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlari amalga oshirilgan. Chunonchi, “Olmaliq KMK” AJ Markaziy apparatidagi (42ta bo‘linmalar) hamda barcha 44ta tarkibiy korxonalarda korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarini amalga oshirish ta‘minlandi.

Kombinatning tarkibiy bo‘linmalari kesimida Korrupsiyaga qarshi kurashish tadbirlarni amalga oshirmagan bo‘linmalar mavjud emas, biroq to‘liq, sifatli va belgilangan muddatlarda bajarmagan tarkibiy bo‘linmalar afsuski mavjud.

Hisobot davrida, “Alfakon Systems” MCHJ (STIR-300144263) konsalting kompaniyasi bilan hamkorlikda quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

- “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi (KQKMT) batafsil qayta ko‘rib chiqilgan;

- Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jami 18ta ichki lokal hujjatlari yalpi inventarizatsiyadan o‘tkazilgan, shundan 2ta hujjat yangi tahrirda ishlab chiqilgan, 2ta yangi ichki lokal hujjatlar ishlab chiqilgan;

- “Olmaliq KMK”AJning tashqi va ichki korrupsiyaviy xavf-xatarlar omillari tahlili o‘tkazilgan (Kombinat konteksti ishlab chiqilgan), korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi maqsad va vazifalar tasdiqlangan;

- “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlari baholanib, Kombinatning umumlashtirilgan yig‘ma korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritasi tasdiqlangan;

- “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaviy xavfga moyilligi yuqori va o‘rta deb e‘tirof etilgan lavozimlari ro‘yxati tuzilgan;

- “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi (KQKMT) dastlabki ichki auditdan o‘tkazilgan;

- “ISO 37001:2016 – “Pora olish va pora berishga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar” korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi bo‘yicha o‘quv-trening mashg‘ulotlari o‘tkazilgan.

**“Olmaliq KMK” AJning ISO 37001:2016 bo‘yicha konteksti tahlili**

| <p><b>“Olmaliq KMK”AJning<br/>Kuchli taraflari<br/>Ichki muhitning ijobiy ta’siri</b></p>   | <p><b>“Olmaliq KMK”AJning<br/>Ojiz taraflari<br/>Ichki muhitning salbiy ta’siri</b></p>   |
|---|---|
| <p>a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Kombinatning ichki normativ hujjatlari ishlab chiqilgan;<br/>b) Kombinat xodimlarini korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishida muntazam o‘qitish va malakasini oshirish uchun yetarli darajada moliyaviy, texnik va institutsional resurslar mavjud;<br/>c) Boshqaruv organi (Kuzatuv kengashi) hamda Rahbariyat korrupsiyaga qarshi kurashishdan shaxsan manfaatdor;<br/>d) Yetarli darajada kompetent va maqsadga muvofiq komplayens ofitserlar jamoasi mavjud.</p>   | <p>a)Korrupsiyaga qarshi kurashni boshqarish tizimi sertifikatlanmagan;<br/>b)Kombinatning tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashishga mas’ul bo‘lgan tuzilmalar mavjud emas;<br/>c)Rag‘batlantirish va rag‘batlantirish tizimining samaradorligi yetarli darajada shaffof emas;<br/>d)Kombinatdagi aksariyat protsesslar raqamlashtirilmagan;<br/>e)Vakant ish o‘rinlariga nomzodlarni tanlash va tayinlash bosqichlari yetarli darajada shaffof va hisobdor qilinmagan, HR yo‘nalishidagi raqamlashtirish ishlari yakuniga yetkazilmagan.</p>   |
| <p><b>“Olmaliq KMK”AJning<br/>Tashqi imkoniyatlari<br/>Tashqi muhitda mavjud bo‘lgan ijobiy imkoniyatlar</b></p>  | <p><b>“Olmaliq KMK”AJning<br/>Tashqi tahdidlari<br/>Maqsadlarga erishishga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi tashqi xatar va tahdidlar</b></p>   |
| <p>a) O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish Agentligi hamda O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligi bilan zaruriy normativ-huquqiy hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish bo‘yicha mustahkam va barqaror aloqalar o‘rnatish imkoniyatlari mavjud;<br/>b) Davlat organlari va huquqni muhofaza qilish organlari bilan doimiy hamkorlik o‘rnatish imkoniyatlari mavjud;<br/>c) Sohaga investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlari mavjud;<br/>d) Soha xodimlarni ilg‘or xorijiy ilmiy muassasalarda o‘qitish va malakasini muntazam malakasini oshirishning moliyaviy imkoniyatlari mavjud.</p> | <p>a) Kombinat ehtiyojlari uchun tovarlar, materiallar va xizmatlarni sotib olish jarayonida hamkorlar bilan korrupsiyaviy holatlarining vujudga kelish imkoniyatlari mavjud;<br/>b) Nopok xodimlarning hamkorlik bosqichida kontragentlar manfaatini ko‘zlab harakat qilish imkoniyatlari yetarli darajada cheklanmagan;<br/>c) Ish va xizmatlarni, shuningdek tovarlarni yetkazib beruvchilar tomonidan shartnoma shartlarini buzganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun pora berish yoki olish imkoniyati yetarli darajada cheklanmagan;<br/>d) Yirik buyurtmachilar bilan hamkorlik bosqichida bajarilgan ishlar to‘g‘risidagi hisobot va hujjatlarni soxtalashtirish orqali poraxo‘rlik qilish yetarli darajada</p> |

|  |               |
|--|---------------|
|  | cheklanmagan. |
|--|---------------|

## II. Siyosat va tartib-taomillar

“Olmaliq KMK” AJda E-anticor.uz Platformasining 1.1.1-bandida keltirilgan barcha 12 ta Korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki idoraviy hujjatlar ishlab chiqilgan, tasdiqlangan va bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Bundan tashqari, qo‘shimcha ravishda “Olmaliq KMK”AJning Kuzatuv kengashi tomonidan 2022 yil 5-iyuldagi 17-son Protokol qarori bilan yana - 2ta hujjat qabul qilingan. Yuqorida qayd etilgan ro‘yxatda “Olmaliq KMK” AJ Kuzatuv kengashi majlisi Protokol qarorining nusxasi kiritilmoqda va tasdiqlangan 2ta hujjatlar ham E-anticor.uz Platformasiga birlashtirilgan.

“Olmaliq KMK” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi jami hujjatlari soni 2025 yilning 1-yanvar holatiga jami - **18 donani tashkil qilmoqda.**

Ta’kidlash joizki, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2023 yil 23 iyundagi №03/09-2-17/3005-son xatiga asosan Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Osiyo taraqqiyot banki hamda Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki ekspertlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan yangi tahrirdagi “Korporativ boshqaruv qoidalari”, “Axloq kodeksi”, “Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosati”, “Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati” va “Qoidabuzarliklar haqida xabardor qilish siyosati” kabi (jami besh dona) hujjatlar loyihalari Kombinatning o‘z faoliyat yo‘nalishlaridan hamda o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda qayta ishlab chiqildi hamda “Olmaliq KMK” AJ Kuzatuv kengashi hamda Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga ko‘rib chiqish va tasdiqlash uchun 2024 yilning avgust oyida taqdim qilingan. Yuqorida qayd etilgan hujjatlar “Olmaliq KMK”AJning Kuzatuv kengashi tomonidan 2023 yilning sentyabr oyida tasdiqlangan hamda Kombinatning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasiga barcha tanishishi uchun o‘zbek (lotin alifbosida), ingliz va rus tillariga o‘g‘irilgan matnlari joylashtirilgan.

“Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ markaziy apparati hamda tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha Komplayens tizimini joriy etishga oid ichki normativ hujjatlar ro‘yxati (**Izoh:** Ichki normativ hujjatlarning RO‘YXATI (2025 yilning 3-yanvar holatiga tuzilgan):

### **Izoh!!!**

Ro‘yxatda ko‘rsatilgan hujjatlar matni bilan “Olmaliq KMK”AJning rasmiy veb sahifasida quyidagi havola orqali bimalol tanishish mumkin:

Davlat (lotin alifbosida) tilida: <https://agmk.uz/oz/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

Rus tilida: <https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

Ingliz tilida: <https://agmk.uz/en/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar>

1. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Komplayens xizmati to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-01-2022);

2. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Komplayens xizmati boshlig‘ining Lavozim yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-02-2022);
3. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Korrupsiyaga qarshi Siyosati” (S 00193950-90-03-2022);
4. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Odob-axloq Kodeksi” (K 00193950-90-04-2022);
5. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-05-2022);
6. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ markaziy apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy tuzilmalarida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy tartibda aniqlash, baholash va ularni kamaytirish Uslubiyoti” (U 00193950-90-06-2022);
7. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning kontragentlarini (ishbilarmon hamkorlarini, investorlari, sheriklarini) tekshirish tartibi bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-07-2022);
8. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ xodimlarini odob-axloq qoidalari hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida o‘qitishni tashkil qilish bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-08-2022);
9. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda tashkil qilingan aloqa kanallari orqali tizimdagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar hamda huquqbuzarliklar to‘g‘risida kelib tushgan xabarlarni qabul qilish va ko‘rib chiqish Reglamenti” (R 00193950-90-09-2022);
10. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJga ishga qabul qilinayotgan nomzodlarni tekshirish tartibi bo‘yicha Yo‘riqnomasi” (Y 00193950-90-10-2022);
11. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ xodimlari tomonidan sodir etilgan korrupsiyaviy xatti-harakatlar va xizmatdagi odob-axloq qoidalari buzish holatlari yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o‘tkazish tartibi to‘g‘risidagi Reglament” (R 00193950-90-11-2022);
12. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha joriy qilingan tartib-taomillarning samaradorligini monitoring va nazorat qilish Uslubiyoti” (R 00193950-90-12-2022);
13. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimining holati to‘g‘risidagi hisobotni shakllantirish va taqdim etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-13-2022);
14. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda sodir etilgan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar haqida xabar bergan yoxud korrupsiyaga qarshi kurashishga boshqa tarzda ko‘maklashgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-14-2022);
15. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJda monopoliyaga qarshi kurashish bo‘yicha Komplayens tizimini joriy qilish va uning ishlash tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-15-2022);

16. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi davlat organlari bilan o‘zaro hamkorlik qilish tartibi to‘g‘risidagi Nizom” (N 00193950-90-16-2022);

17. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” Aksiyadorlik jamiyati xodimlari tomonidan xizmat safarlari, xalqaro, mahalliy va boshqa tadbirlar munosabati bilan olinishi va berilishi mumkin bo‘lgan sovg‘alar qiymati (soni), shuningdek ularni tasarruf etish tartibi to‘g‘risidagi Nizom”.

Bundan tashqari, “Olmaliq KMK”AJning Kuzatuv kengashi tomonidan 2022 yil 5-iyuldagi 17-son Protokol qarori bilan:

1. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJ Kuzatuv kengashining Korrupsiyaga qarshi kurashish va etika qo‘mitasi to‘g‘risidagi Nizom (N 00193950-90-01-2022). (asos: 2022 yil 8-apreldagi PF-101-son Farmonning 14-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan).

2. “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” AJning Yetkazib beruvchilarini (ta‘minotchilarini/pudratchilarini) mas‘uliyatli tanlash uchun ta‘minot (pudrat) zanjirlarini lozim darajada tekshirish bo‘yicha Siyosati” (S 00193950-90-02-2022). (asos: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Olmaliq shahriga tashrifi 2021 yil 29 dekabrda №02-RA 1-20838-son topshiriq bilan tasdiqlangan 22-dekabrda 56-son bayonning 10.2.-bandiga muvofiq ishlab chiqilgan).

“Olmaliq KMK”AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yo‘nalishida 2024 - 2025 yillar uchun belgilangan **maqsad va vazifalari** ishlab chiqildi hamda Boshqaruv raisining birinchi o‘rinbosari S.V.Larionov tomonidan 2024 yilning 8-oktyabr sanasida tasdiqlandi.

#### 1. Yuqoridagi Maqsad va vazifalarda belgilangan **1-topshiriq ijrosi bo‘yicha:**

Komplayens xizmati tomonidan Kombinat IT departamenti mutaxassislari bilan hamkorlikda Kombinat va tarkibiy korxonalaridagi **barcha 100% xodimlar** tomonidan Manfaatlarga to‘qnashuviga oid deklaratsiyalar, xabarnoma hamda reyestr yuritish ishlarini raqamlashtirish ishlari yakuniga yetkazilmoqda.

2. Kombinat xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yanada yuksaltirish **yo‘nalishida:**

Kombinat markaziy apparati hamda tarkibiy korxonalarining rahbar hamda injener-texnik toifadagi xodimlari uchun Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi ichki normativ hujjatlarining mazmun-mohiyatini tushuntirish bo‘yicha Test sinovlarini tashkil qilish – rahbar va injener texnik xodimlarning kamida 10% ni o‘qitish hamda egallagan bilimlarini TEST sinovlaridan o‘tkazish ishlari ham amalga oshirilmoqda. Chunonchi, TEST savolnomalari loyihalari ishlab chiqildi hamda **Kombinat O‘quv markaziga** test sinovlarini tashkil qilish uchun taqdim etildi.

3. Kombinat faoliyatida korrupsiyaning har qanday shakli va ko‘rinishlariga nisbatan mutlaqo toqatsizlik (murosasiz) munosabatni shakllantirish **yo‘nalishida:**

Kombinat markaziy apparati hamda tarkibiy korxonalariga tegishli bino va inshootlarda joylashtirish uchun **3 xil turdagi** A-3 formatdagi aksilkorrupsiyasiyaviy targ‘ibot va tashviqot materiallari ishlab chiqildi hamda chop etish va joylashtirish uchun Kombinat Ma‘muriy-ijtimoiy ishlar departamentiga tegishli buyurtmanoma so‘rovnoma hamda tarqatma material va targ‘ibot materiallari chop etish hamda tarqatish uchun taqdim qilindi.

### **III. Xavf-xatarlarni baholash**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 11-maydagi PQ-240-son qaroriga asosan “Olmaliq KMK”AJning Ustavida belgilangan barcha funktsiya va vazifalar korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha baholashdan 2023 yil 25 sentyabrda o‘tkazilgan.

Bundan tashqari Kombinatning 18ta tarkibiy bo‘linmalarining barcha funktsiya va vazifalari korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash bo‘yicha baholashdan o‘tkazildi.

Davlat tashkilotlari o‘z faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni majburiy aniqlash va baholash ishlarini O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (2022-yil 31-avgust, 2-son) va O‘zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligining (2022-yil 31-avgust, 5-son) qarori bilan tasdiqlangan va **3383-son** bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan “Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari, shu jumladan ularning hududiy bo‘linmalari, davlat unitar korxonalari va muassasalari, davlat ulushi 50 foizdan yuqori tashkilotlar faoliyatida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash va baholash” **Uslubiyoti** asosida “**Olmaliq KMK**”AJda **jami 279 ta funktsiya va vazifalar baholashdan o‘tkazilgan.**

Baholash natijalariga ko‘ra, ushbu funktsiyalardan 269 tasi maqbul (past), 2 tasi o‘rtacha va 8tasi yuqori xavf-xatarlar mavjud deb e‘tirof etilgan hamda 2023 yilning sentyabr oyida Kombinat markaziy apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarning **umumlashtirilgan yaxlit korrupsiyaviy xavf - xatarlar xaritasi tasdiqlangan.**

“Olmaliq KMK”AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarga eng ko‘p moyil bo‘lgan funktsiya va lavozimlar ro‘yxati hamda 2024 yil korrupsiyaga qarshi kurashish doirasidagi maqsadlar belgilangan va o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha Reja-dastur tasdiqlangan.

“Olmaliq KMK”AJda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash Uslubiyoti” talablariga muvofiq Kombinat va uning tizimida korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholash har yili yoki shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik talablari o‘zgarishida amalga oshirilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2024 yil **8-maydagi №02-07-2798-son** xatida bildirilgan taklif va e‘tirozlar asosida, “Olmaliq KMK”AJning korrupsiyaviy xavf-xatarlari qayta baholab chiqildi.

Chunonchi, Agentlikning tavsiyalariga muvofiq Kombinat Ustavida belgilangan barcha (jami – 65 dona) **oltmish beshta funksiya va vazifalar to‘liq** baholashdan o‘tkazildi.

Qayta baholash yakunlariga ko‘ra, Kombinat Ustavida belgilangan 65ta funksiya va vazifalardan:

- **21tasi (32,3%) – Yuqori;**
- **36tasi (55,4%) – O‘rta;**
- **8tasi (12,3%) funksiya va vazifalarning korrupsiyaga moyillik darajasi “Past” deb e‘tirof etildi.**

Barcha funksiyalarning jarayonlar ustunidagi tavsiflarini batafsil yoritish ta‘minlandi. Tegishli ustunda tartib taomillarning (normativ-huquqiy hujjatlar) rekvizitlari ham batafsil ko‘rsatib o‘tildi. Bartaraf etish choralari ustunida esa Agentlik tomonidan qayd etilgan salbiy umumiylik holati bartaraf etildi hamda xar bir funksiyada unda aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlardan kelib chiqqan xolda, xavflarni bartaraf etish bo‘yicha individual chora-tadbirlar ishlab chiqildi va ularning ijrochilari va muddatlari aniq belgilab qo‘yildi.

Agentlik mutaxassislari bilan uzviy hamkorlikda olib borilgan qayta baholash ishlari natijasida, Agentlik tomonidan muqaddam aniqlangan kamchilik va e‘tirozlar to‘liq bartaraf etilishiga erishildi.

Ta‘kidlash joizki, amalga oshirilgan ishlar natijasida “Olmaliq KMK”AJning Korrupsiyaviy xavf-xatarlar Xaritasi shakllantirildi va tasdiqlandi.

Xarita asosida aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni bartaraf etish bo‘yicha Dastur ishlab chiqildi va tasdiqlandi (yuqori va o‘rta deb baholangan funksiyalar - 57ta banddan iborat);

Shuningdek, Korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyilligi yuqori va o‘rta deb baholangan Lavozimlar ro‘yxati ham shakllantirildi va tasdiqlandi (ilovada barcha 3ta hujjatlar imzolangan va muhr bilan tasdiqlangan shaklda) kiritilmoqda.

**“Olmaliq KMK”AJ markaziy apparati bo‘linmalari hamda loyihaga jalb qilingan tarkibiy korxonalarda joriy qilingan korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimining (KQKMT) ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablariga muvofiqligini dastlabki ichki auditdan o‘tkazish doirasida, boshqaruv xodimlari hamda injener-texnik xodimlarning Lavozim yo‘riqnomalari hamda bo‘linmalar Nizomida belgilangan funksiya va vazifalarini (huquq va vakolatlarini) korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyillik darajasini baholash natijasi bo‘yicha**

#### **JADVAL MA’LUMOT**

<https://lex.uz/ru/docs/6000287 - PQ-240>

<https://lex.uz/ru/docs/6178891 - Metodika № 3383>

<https://agmk.uz/ru/menu/korrupsiyaga-oid-hujjatlar> - Kombinatning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki normativ hujjatlari to‘plami).

| №  | Indeks | “Olmaliq KMK”AJ markaziy apparati<br>bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalar nomi<br>(Departament, Boshqarma, Bo‘lim, Xizmat) | Funksiya va vazifalarning<br>korrupsiyaviy xavf-xatarlarga<br>moyillik darajasi |       |      |
|----|--------|--|---|-------|------|
|    |        |  | Yuqori  | O‘rta | Past |
| 1  | 02-1   | Kon ishlari bo‘yicha bosh muhandis o‘rinbosari   | 5   |       |      |
| 2  | 02-2   | Texnologiya bo‘yicha bosh muhandis o‘rinbosari   |   | 1     | 9    |
| 3  | 02-3   | Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo‘yicha<br>bosh muhandis o‘rinbosari   | 2   | 1     |      |
| 4  | 02-4   | Ishlab chiqarish bo‘yicha bosh muhandis o‘rinbosari  |   | 3     | 2    |
| 5  | 02-5   | Ilm-fan bo‘yicha bosh muhandis o‘rinbosari   | 2   | 3     |      |
| 6  | 61- 01 | Ishlab chiqarishni muvofiqlashtirish bo‘limi   |   | 2     | 5    |
| 7  | 61-02  | Texnologiya departamenti   |   | 27    | 59   |
| 8  | 61 -03 | Standartlashtirish va sertifikatlashtirish xizmati   |   | 4     |      |
| 9  | 61-04  | Temir yo‘l transporti va logistika bo‘limi   | 2   | 3     | 1    |
| 10 | 61-05  | Avtomobil transporti va logistika bo‘limi  | 2   | 3     | 1    |
| 11 | 61-06  | Komplaens xizmati  | 2   | 3     | 3    |
| 12 | 61-07  | Moliyaviy risklar va kovenantni boshqarish bo‘limi   |   | 3     |      |
| 13 | 61-08  | Energiya menejer xizmati   | 1   | 4     | 6    |
| 14 | 61-09  | Mahsulot bozori konyukturasini o‘rganish bo‘limi   |   | 2     | 3    |
| 15 | 61-10  | G‘aznachilik va korporativ moliya boshqarmasi  |   | 3     |      |
| 16 | 61-11  | Markaziy hisobxona   |   | 24    | 28   |
| 17 | 61-12  | Investitsiyalar va kapital qurilish departamenti   |   |       | 12   |
| 18 | 61-13  | Inson resurslari (HR) departamenti   | 4   | 2     | 2    |
| 19 | 61-14  | Raqamlashtirish departamenti   |   | 1     | 4    |
| 20 | 61-15  | Kombinat Yoshlar ittifoqi bo‘limi  |   |       | 2    |
| 21 | 61-16  | Mehnatni muhofaza qilish va sanoat xavfsizligi bo‘limi   | 12  | 6     |      |
| 22 | 61-17  | Investorlar bilan aloqalar va korporativ munosabatlar<br>xizmati Korporativ kotibiyat  |   | 2     | 2    |
| 23 | 61-18  | Ma‘muriy ijtimoiy ishlar departamenti  |   | 8     | 32   |
| 24 | 61-19  | Yuridik departament  |   | 8     |      |
| 25 | 61-20  | Ofis-menejer xizmati   |   |       | 15   |
| 26 | 61-21  | Tog‘ -kon bo‘limi  | 6   | 5     |      |
| 27 | 61-22  | “Olmaliq KMK”AJ Toshkent shahridagi vakolatxonasi  |   | 1     | 2    |
| 28 | 61-24  | Byudjetlashtirish va xarajatlarni nazorat qilish departamenti  |   | 3     | 25   |
| 29 | 61-25  | Mehnatga haq to‘lash va rag‘batlantirish bo‘limi   |   |       | 47   |
| 30 | 61-44  | Investitsiya takliflari va istiqbolli loyihalarni amalga<br>oshirishga tayyorlash bo‘yicha Loyiha ofisi                      |   |       | 16   |
| 31 | 61-27  | Geologiya bo‘limi  |   |       | 20   |
| 32 | 61-28  | Marksheyderlik bo‘limi   | 7   | 10    |      |
| 33 | 61-30  | Mexanika xizmati departamenti  |   | 5     | 3    |
| 34 | 61-31  | Energetika xizmati departamenti  | 4   | 5     | 3    |
| 35 | 61-32  | Atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘limi (AMMB)   | 6   | 5     |      |
| 36 | 61-33  | Axborot-tahlil ishlari va nazorat bo‘limi  |   |       | 25   |
| 37 | 61-34  | Ishlab chiqarishni nazorat qilish byurosi  | 2   | 3     |      |
| 38 | 61-40  | Ichki audit xizmati  |   | 2     | 5    |
| 40 | 61-63  | Ilm-fan va innovatsiyalar departamenti   |   | 3     | 5    |



| №  | Indeks | “Olmaliq KMK”AJ markaziy apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalar nomi (Departament, Boshqarma, Bo‘lim, Xizmat) | Funksiya va vazifalarning korrupsiyaviy xavf-xatarlarga moyillik darajasi |            |            |
|--|--------|--|---|------------|------------|
|  |        |  | Yuqori  | O‘rta      | Past       |
| 41   | 61-64  | Strategik rivojlantirish va transformatsiya bo‘limi  |   |            | 11         |
| 42   | 61-42  | Xalqaro hamkorlik va protokol bo‘limi  |   |            | 10         |
| 43   | 61-69  | Mahalliyashtirish bo‘limi  |   | 2          | 2          |
| 44   | 61-70  | Shartnoma majburiyatlarini nazorat qilish byurosi  |   |            | 2          |
| 45   | 61-73  | Jismoniy shaxslar murojaatlari bilan ishlashni nazorat qilish va muvofiqlashtirish bo‘limi                             |   |            | 14         |
| 46   | 53     | “Olmaliqmetallurgqurilish” tresti (OMQT)   | 7   | 14         | 3          |
| 47   | 66     | Moddiy-texnik ta’minot boshqarmasi (MTTB)  | 11  | 9          | 2          |
| 48   | 67     | Sotish va metallurgiya xom-ashyolari ta’minoti boshqarmasi   |   |            | 5          |
| <b>Jami baholangan funksiya va vazifalar soni:</b> |        |  | <b>75</b>   | <b>180</b> | <b>386</b> |

Shunga ko‘ra, korrupsiyaviy xavf va xatarlarni baholash ishlari “Olmaliq KMK”AJda yakuniga yetkazilganligi ma’lum qilinadi.

#### IV. Manfaatlar to‘qnashuvini tartibga solish.

“Olmaliq KMK” AJning 2024 yil davomida Manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi deklaratsiyani to‘ldirgan umumiy xodimlar soniga nisbatan - **47,2** foizni yoki **16 442 nafar xodimlar** tomonidan to‘ldirildi. Ishga qabul qilishda, lavozimi o‘zgarayotganda, rotatsiya qilinayotganda va yillik deklaratsiyani to‘ldirgan Kombinat xodimlarining umumiy ro‘yxati Xodimlar bilan ishlash xizmati tomonidan tasdiqlangan (ro‘yxat ilova qilinmoqda).

“Olmaliq KMK” AJ Boshqaruv raisining 2022 yil 31 oktyabridagi 001258-son Buyrug‘i bilan “Olmaliq KMK”AJda Manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlangan. Mazkur hujjat bilan Kombinat va uning tarkibiy bo‘linmalarida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va bartaraf etish tartibi, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuvini deklaratsiya qilishning qoidalari belgilangan.

Kombinat va uning tarkibiy tuzilmalarida manfaatlar to‘qnashuvi holatlari kelib chiqishini oldini olish maqsadida quyidagi holatlarda xodimlar tomonidan deklaratsiyalar taqdim etilishi belgilangan va bugungi kunda amalga oshirilib kelinmoqda:

- vakant bo‘lgan bo‘sh ish o‘rinlarga nomzodlarni lavozimga tayinlash va (yoki) rotatsiya qilishda;
- yillik deklaratsiyalar;
- real yoki potensial manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan fakti bo‘yicha deklaratsiyalar.

Komplyens xizmati tomonidan Kombinat IT departamenti (R.A.Maksumov hamda V.Z.Irismetov) mutaxassislari bilan hamkorlikda Kombinat markaziy apparati (430 nafar xodimlar) va tarkibiy korxonalaridagi (34 812 nafar xodimlar) **barcha 100% xodimlar** tomonidan Manfaatlar to‘qnashuviga oid deklaratsiyalar, xabarnoma hamda reyestr yuritish ishlarini raqamlashtirish ishlari amalga oshirilmoqda.

## **Korrupsiyaga qarshi qoidalarni Kombinat shartnomalariga kiritish va kontragentlarni tekshirish holati.**

Korrupsiyaga qarshi qoidalar “Olmaliq KMK”AJning 2024 yilda imzolangan barcha yani **6015 dona** shartnoma va kontraktlariga kiritilishi toliq ta’minlangan. Shundan, “Kontragentlarni tekshirish to’g’risida”gi Nizomga muvofiq, kontragentlarni tekshirish “tender”, “eng yaxshi taklifni tanlash” va “to’g’ridan-to’g’ri shartnomalar” kabi xaridlar turlari bo’yicha **“forensic audit”** hamda **“due diligence”** ya’ni **Soliq kodeksining 15-moddasiga** ko’ra, **“lozim darajada ehtiyotkorlik qilish”** maqsadida yuqoridagi toifaga kiritilgan shartnomalar bo’yicha kontragentlar kompleks tekshiruvlardan o’tkazilgan.

Kompleks tekshiruvdan o’tkazilgan shartnoma va kontraktlar soni **Hisobot davrida - 180 tani tashkil qilgan.**

Hisobot davrida kontragentlar tomonidan korrupsiyaga qarshi qoidalarni shartnoma va kontraktlarga kiritishni rad etish holatlari kuzatilmadi.

“Olmaliq KMK”AJning biznes-hamkorlari bilan tuzilgan shartnomalarga “Kombinatning Korrupsiyaga qarshi kurashish bo’yicha shartlar”i kiritish barcha turdagi shartnoma va kontraktlar bo’yicha ta’minlangan.

Shuningdek, Kombinatning ish beruvchi sifatida xodimlar bilan tuziladigan barcha mehnat shartnomalariga ham Inson resurslari departamenti tomonidan kiritilishi ta’minlanmoqda.

## **Vakant lavozimlarga nomzodlarni tekshirish**

“Olmaliq KMK” AJda hisobot davrida 2024 yil davomida jami **1253 nafar yangi xodimlar ishga qabul qilingan.**

Barcha nomzodlar 100% tekshirilishi ta’minlandi. Nomzodlarni tekshirish ishlari Boshqaruv raisining Xavfsizlik bo’yicha o’rinbosari, Kombinat markaziy apparati RSO-Rejim maxfiylikni ta’minlash bo’limi hamda tarkibiy korxonalaridagi xavfsizlik bo’yicha rahbar o’rinbosarlari tomonidan amalga oshirilgan.

Tasdiqlovchi hujjatlar E-anticor.uz Platformaning 1.2.3.3.- indikatoriga joylashtirildi. Ishga qabul qilinuvchi nomzodlarga nisbatan o’tkazilgan tekshiruvlar to’g’risidagi xulosalar ham Platformaga yuklandi.

## **V. Ta’lim va kommunikatsiya**

“Olmaliq KMK”AJning 2024 yil 21-iyundagi 000935 – son buyrug’i bilan Kombinatning 17 nafar xodimlari **“Alfakon Systems”MCHJ** tomonidan o’qitildi.

“Olmaliq KMK” AJ Inson resurslari departamenti tomonidan tasdiqlangan o’qitish turlari, shakllari, o’qitilgan xodimlar soni hamda ularning lavozimi va bo’linmalari ro’yxati ilovada kiritilmoqda.

**Huquqni muhofaza qilish Akademiyasi** tomonidan Kombinat xodimlariga berilgan sertifikatlardan namunalar E-anticor.uz platformaning 4.2.4. Indikatorida 3ta donasi biriktirildi.

Bundan tashqari, “Olmaliq KMK” AJning 2024 yil 11-iyuldagi №59-FMSh/24-07-02228 – son farmoyishi bilan Kombinatning **125 nafar xodimlari** rahbar hamda injener-texnik toifadagi xodimlar korrupsiyaga qarshi kurashish, manfaatlar to‘qnashuvning oldini olish, bartaraf etish, xalqaro standartlar talablari kabi mavzularda **Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazi** mutaxassislari tomonidan Olmaliq shahridagi MISIS universitetiga 6 kun davomida tashrif buyurgan holda o‘qitildi.

Xodimlarni o‘qitish va malakasini oshirishga oid hujjat va tasdiqlovchi materiallar Platformaning 4.2.4. Indikatoriga biriktirildi.

“Olmaliq KMK” AJ xodimlarining korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy ongini yanada oshirish hamda korrupsiyaga qarshi murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida 2024 yilda o‘quv-trening mashg‘ulotlarini o‘tkazish bo‘yicha Kombinat o‘quv markazi tomonidan reja-dastur tasdiqlangan va belgilangan muddatlarda o‘quv-treninglar o‘tkazib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish boshqaruv tizimi talablarining o‘zlashtirilganlik darajasini tekshirish maqsadida 125 nafar xodimlar o‘rtasida test sinovlari o‘tkazildi.

2024 yil 9 dekabr kuni – Xalqaro korrupsiyaga qarshi kurashish kuni munosabati bilan Olmaliq shahridagi “Metallurg” madaniyat saroyida Kombinat rahbariyati boshchiligida “Ochiq eshiklar kuni” tadbirini o‘tkazildi.

“Olmaliq KMK” AJ Boshqaruv Raisining korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yuzasidan xodimlar va biznes hamkorlarga yo‘llagan murojaati Kombinatning rasmiy veb-sahifasida davlat tilida, rus va ingliz tillarida joylashtirilgan. (<https://agmk.uz/ru/vystuplenija/okmk-boshqaruv-raising-kombinat-xodimlariga-murojaati-2024> - rus tilida), (<https://agmk.uz/oz/vystuplenija/okmk-boshqaruv-raising-kombinat-xodimlariga-murojaati-2024> – davlat tilida), (<https://agmk.uz/en/vystuplenija/okmk-boshqaruv-raising-kombinat-xodimlariga-murojaati-2024> – ingliz tilida) va “Olmaliq KMK” AJning rasmiy Telegram kanalida ([https://t.me/ao\\_agmk/29258](https://t.me/ao_agmk/29258)) ham joylashtirilgan.

“Olmaliq KMK”AJga ishga qabul qilingan yangi xodimlarga Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi yuzasidan doimiy tarzda **“Welcome Training”** dasturi bo‘yicha **Kombinat O‘quv markazi** tomonidan muntazam ravishda o‘quv treninglar o‘tkazilib kelinmoqda.

Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini yanada takomillashtirish, shuningdek mijoz va xodimlarning fikrini o‘rganish maqsadida Kombinatning rasmiy Telegram kanalida “So‘rovnoma”lar joylashtirilgan.

Kombinat rasmiy veb sayti hamda ijtimoiy tarmoqlarda korrupsiyaviy xatti-harakatlar to‘g‘risida xabar berish uchun mo‘ljallangan aloqa kanallari to‘g‘risida e‘lonlar joylashtirilgan.

Xodimlarga aloqa kanallari va ular orqali korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar to‘g‘risida xabarlar yuborish imkoniyati haqida eslatmalar muntazam yuboriladi.

## **VI. Korrupsiyaviy xatti-xarakterlar va huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi xabarlar**

“Olmaliq KMK” AJning internet tarmog‘idagi rasmiy veb-sahifasi (<https://agmk.uz/ru/menu/helpline->) yoxud elektron pochta manzili orqali ([stop.corruption@agmk.uz](mailto:stop.corruption@agmk.uz)).

“Olmaliq KMK” AJning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanal va sahifalari (misol uchun Facebookdagi rasmiy sahifasi <http://www.facebook.com/agmkofficial>) orqali.

“Olmaliq KMK” AJning Ishonch telefon raqami orqali: **+998 70 619-23-33 (+998 78 141-93-33** ishonch raqami va boshqa ish telefon raqamlari orqali).

“Olmaliq KMK” AJning telegram boti ([https://t.me/agmk\\_bot](https://t.me/agmk_bot)) “Olmaliq KMK” AJ rahbariyati yoxud Komplayens xizmatiga og‘zaki (shaxsan) murojaat qilishlari mumkin.

Komplayens xizmati:

**(+998 70) 619-51-16 (Komplaens xizmati).**

**(+998 93) 182-09-04 (Komplaens xizmati).**

**(+998 93) 182-24-22 (Komplaens xizmati).**

(+998 78) 141-90-09 (Kommutator);

(+998 70) 619-51-68 (Ofis-menejer xizmati – xatlar yuborish uchun).

“Olmaliq KMK” AJning internet tarmog‘idagi rasmiy web sahifasi havolasi: [www.agmk.uz](http://www.agmk.uz)

Telegramm messenjerida – “AGMK-OKMK rasmiy kanali” - [https://t.me/ao\\_agmk](https://t.me/ao_agmk)

Facebook messenjerida: [www.facebook.com/agmkofficial](http://www.facebook.com/agmkofficial)

Youtube videoxostingida: [www.youtube.com/c/AGMKuzAlmalik](http://www.youtube.com/c/AGMKuzAlmalik)

Instagram messenjerida: [www.instagram.com/agmkofficial/](http://www.instagram.com/agmkofficial/)

Twitter mikroblogida: [https://twitter.com/agmk\\_official](https://twitter.com/agmk_official)

## **VII. Monitoring va nazorat<sup>1</sup>**

“Olmaliq KMK” AJ ning Korrupsiyaga qarshi kurashish yo‘nalishidagi chora -tadbirlari Reja (tashkilotning barcha jarayonlarini, monitoring va nazorat qilinadigan davri va tekshiruv muddatlarini o‘z ichiga olgan) qaror, buyruq va farmoyishlari ilovada kiritilmoqda.

Shuningdek Marksheyderlik bo‘limida o‘tkazilgan Xizmat tekshiruvi natijasida tuzilgan dalolatnoma, chora-tadbirlar, aniqlangan kamchiliklar, muammolarni yechish bo‘yicha takliflar nusxalari kiritilmoqda.

Toshkent viloyati hokimining tegishli qaroriga ko‘ra, 2024 yilning 1 oktyabr holatiga Kombinat balansida jami - 22 067 gektar yer maydonlari mavjud. Ular 5dan ortiq toifaga bo‘linadi.

Komplaens xizmati tomonidan Hisobot davrida o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari to'g'risidagi ma'lumotlar (aniqlangan kamchiliklar, muammolarni bartaraf etish bo'yicha asoslantirilgan takliflar, xizmat tekshiruvlarini o'tkazish uchun asos bo'lgan buyruqlar nusxalari) Samaradorlikni baholash bo'yicha E-anticor.uz Platformasining 1.2.4.2.-bandiga barcha tasdiqlovchi hujjatlari bilan kiritildi.

### **VIII. Aniqlangan qoidabuzarliklar va ularga ta'sir choralari**

2024-yil mobaynida "Olmaliq KMK" AJda jami **106ta jinoyatlar sodir etilgan**, shundan 17 ta fosh etilmagan jinoyatlar, jinoyatlarni fosh etish darajasi - 83,9 % tashkil etdi.

"Olmaliq KMK"AJdagi jinoyatlar o'rganilganda, 2024-yil davomida o'tgan yilga nisbatan jinoyat turlarida o'sish holatlari kuzatilgan, biroq "Olmaliq KMK"AJda bezorilik jinoyati 100 foizga (2/0) kamaygan.

#### **Shundan, jinoyat qidiruv bo'yicha**

O'rtacha og'ir tanjarohati yetkazish (0/3) 100 foizga oshgan;

Yengil tan jarohati yetkazish (0/3) 100 foizga oshgan;

Talonchilik (0/1) 100 foizga oshgan;

Firibgarlik (7/15) 114,2 foizga oshgan;

O'g'rilik (27/52) 92,5 foizga oshgan;

O'lim bilan bog'liq, YTX, (1/1);

Giyohvandlik jinoyati (0/1) 100 foizga oshgan;

Hujjat soxtakorligi (1/7) 600 foizga oshgan;

Oilaviy (maishiy) zo'ravonlik (0/1) 100 foizga oshgan.

#### **Shuningdek, iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha**

O'zlashtirish va rastrata (1/7) 100 foizga oshgan;

Poraxo'rlik jinoyati (2/3) 50 foizga oshgan;

Mansab soxtakorligi (2/1) 50 foizga kamaygan.

#### **Shuningdek, boshqa xizmat yo'nalishidagi jinoyatlar bo'yicha**

Mehnatni muhofaza qilish qoidalarini buzish (5/5);

Yer uchastkalarini o'zboshimchalik bilan o'zlashtirib olish (0/2) 100 foizga oshgan.

**Hisobot davrida, sodir etilgan 106 ta jinoyatlarni hududlar kesimidagi tahlili quyidagicha:**

- Olmaliq shahar hududida 97 ta;
- Ohangaron tuman hududida 6 ta;
- Namangan viloyati Chodak qo'rg'oni 2 ta;
- Surxondaryo viloyatida 1 ta.

**Olmalik shahar hududida sodir etilgan 97 ta jinoyatlarning, obyektlar kesimidagi tahlili quyidagicha ko‘rinish kasb etdi:**

- 1) Mis boyitish fabrikasida - 8 ta (1 ta fosh etilmagan);
- 2) 3-sonli Mis boyitish fabrikasida - 48 ta (1 ta fosh etilmagan);
- 3) 2-sonli Mis boyitish fabrikasida - 2 ta;
- 4) “Olmalik metallurg qurilish” trestida - 5 ta;
- 5) “Yoshlik-1” konida - 3 ta (1 ta fosh etilmagan);
- 6) Mis eritish zavodida - 2 ta;
- 7) Rux zavodida - 1 ta (fosh etilmagan);
- 8) Markaziy ta’irlash mexanika zavodida -1 ta (fosh etilmagan);
- 9) Ijtimoiy obyektlar boshqarmasida - 9 ta;
- 10) Iste’mol mollari ishlab chiqarish boshqarmasida -1 ta;
- 11) Avtomobil transport boshqarmasida - 6 ta;
- 12) Qo‘rg‘oshin konida -1 ta;
- 13) Kovuldi konida -1 ta;
- 14) Ustki qatlam ochish konida (Vskrishnoy) -1 ta (fosh etilmagan);
- 15) Olmalik shahar bo‘yicha boshqalar - 5 ta (4 ta spes.pr-ra, 1 ta “Olmalik KMK”AJ

IIB TB);

- 16) Texnologik transporti boshqarmasida - 1 ta;
- 17) Sanoat temir yo‘l transporti boshqarmasida - 2 ta.

**Ohangaron tumanida sodir etilgan 6 ta jinoyatlar quyidagilarni tashkil etadi:**

- 1) Iste’mol mollari ishlab chiqarish boshqarmasida (zaxira yerlari) -1 ta;
- 2) “Olmalik KMK” AJ Angren kon boshqarmasi “Ko‘chbuloq” shaxtasida - 4 ta;
- 3) Ohangaron tumani bo‘yicha boshqa obyektlarda -1 ta.

**Namangan viloyatida sodir etilgan 2 ta jinoyatlar, obyektlar bo‘yicha quyidagilarni tashkil qiladi:**

- 1) Chodak kon boshqarmasi “Pirmirob” shaxtasida - 2 ta.

**Surxondaryo viloyatida Kombinatga tegishli obyekt xududida sodir etilgan 1 ta jinoyat, obyektlar bo‘yicha quyidagilarni tashkil qiladi:**

- 1)“Xondiza” kon boshqarmasida -1 ta.

“Olmalik KMK” AJda sodir etilgan jinoyatlarning **58,2** foizini (106 tadan 67 ta) o‘g‘rilik va firibgarlik jinoyatlari tashkil etgan.

O‘g‘rilik jinoyatining asosiy salmog‘i “Olmalik KMK” AJdagi toifalangan obyektlarda, chunonchi:

- Mis boyitish fabrikasida (15,3%, 52 tadan 8 ta);
- 3-Mis boyitish fabrikasida (61,5%, 52 tadan 32 ta);

- Ijtimoiy obyektlar boshqarmasida (9,6%, 52 tadan 5 ta);
- AKB “Ko‘chbuloq” konida (7,6%, 52 tadan 4 ta);
- Ohangaron tumani bo‘yicha boshqalar (1,9 % 52 tadan 1 ta);
- CHKB “Pirmirob” shaxtasida (3,8% 52 tadan 2 ta).

Firibgarlik jinoyatining asosiy qismi quyidagi usullar orqali sodir etilmoqda:

- ishga joylashtirib berish (46,6%, 15 tadan 7 ta);
- onlayn kredit olib berish (26,6%, 15 tadan 4 ta);
- plastik kartadan pul yechish (20%, 15 tadan 3 ta);
- yer uchastkani sohta hujjatlar bilan sotish (6,6%, 15 tadan 1 ta).

Ayollar (3/2) tomonidan sodir etilgan jinoyatlar soni, o‘tgan 2023 yilga nisbatan kamaygan.

Yoshlar (16/32), ishsizlar (0/1), guruhlar (12/20) tomonidan sodir etilgan jinoyatlar sonida esa afsuski o‘shish holatlari kuzatilgan.

Muqaddam sudlanganlar (5/5), mastlar (1/1), jinoyatchiligi o‘zgarishsiz qolgan.

“Olmaliq KMK” AJda ma’muriy huquqbuzarliklar soni (72/122), 2023-yilning shu davrida 136 ta shaxslar va 2024-yilning shu davrida 230 shaxslar ma’muriy javobgarlikka tortilgan.

## IX. Xulosalar

“Olmaliq KMK”AJ tizimida jami 88ta tarkibiy bo‘linmalar mavjud.

**2025 yilning 3-yanvar** holatiga Kombinat tizimida **35821 nafar ishchi xodimlar** mehnat faoliyatini amalga oshirib kelmoqda. 2024 yil davomida **jami 6015 dona kontraktlar imzolangan va Kombinat Yuridik Departamentida ro‘yxatdan o‘tkazilgan.**

2021 yilning 21-may sanasidagi Boshqaruv qaroriga asosan Kombinatda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi tashkil qilingan.

2024 yil holatiga Komplayens xizmatida 6ta shtat birliklari mavjud bo‘lib, haqiqatda (amalda) uch (3) nafar xodimlar faoliyat ko‘rsatmoqda.

Xizmatdagi 3ta vakant bo‘sh ish o‘rinlari uchun Kombinatning Xodimlar bilan ishlash departamenti tomonidan tanlovlar e‘lon qilish rejalashtirilgan.

“Olmaliq KMK”AJ Yagona aksiyadorining 2024-yil 26-avgustdagi “Olmaliq kon-metallurgiya kombinati” aksiyadorlik jamiyatining yangi tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi **3/1-sonli Qarori** bilan “Olmaliq KMK”AJning **yangi tahrirdagi tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi.** Ushbu qaror ijrosini ta’minlash maqsadida, “Olmaliq KMK”AJning 2024-yil 30-sentyabrdagi 1516 –son buyrug‘i qabul qilindi va ushbu buyruq bilan **Kombinat Ijro apparatining yangi tahrirdagi shtatlar jadvali tasdiqlandi.**

Tasdiqlangan shtatlar jadvaliga muvofiq, **“Komplayens-nazorat xizmati” tugatilib uning negizida “Komplayens xizmati” qayta tashkil qilindi.** Bundan

tashqari, **Kombinatning “Komplayens xizmati” Kuzatuv kengashi bo‘ysunuviga o‘tkazildi va unga hisobdor qilib belgilandi.**

2022 yilning 31-oktyabr sanasida korrupsiyaga qarshi kurashish masalalariga oid 17dona ichki lokal hujjatlar Boshqaruv qarori bilan tasdiqlangan va amaliyotga bosqichma-bosqich joriy qilinmoqda.

Bundan tashqari, yana 2ta hujjat “Olmaliq KMK”AJning Kuzatuv kengashi tomonidan 2022 yilning iyul oyida tasdiqlangan.

2024 yilning may oyida, “Alfakon Systems” MCHJ konsalting kompaniyasi bilan **“ISO 37001:2016 – “Pora olish va pora berishga qarshi boshqaruv tizimlari – Foydalanish uchun talablar va tavsiyalar”** xalqaro standarti talablariga muvofiqlik sertifikatni olish maqsadida shartnoma imzolandi.

19-26 sentyabr kunlari dastlabki ichki audit o‘tkazildi, audit jarayonida bir qator kamchiliklar aniqlanib va kamchiliklar bo‘yicha tavsiyalar berildi. Shuningdek audit davomida korrupsiya haqida, korrupsiyaga duch kelganda kimga murojaat qilish kerakligi to‘g‘risida tushuntirishlar berildi.

Ichki audit yakunlari bo‘yicha ayrim nomuvofiqliklar kuzatildi hamda ushbu nomuvofiqliklarni bartaraf etish bo‘yicha aniq tavsiyalar berildi.

Ichki audit yakunlari bo‘yicha alohida hisobot tayyorlandi.

### **Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimini samaradorligini va jarayonlarning ko‘rsatkichlari (KQKMT)**

*(ISO 37001, 8.1 bandi)*

| №  | Samaradorlik ko‘rsatkichi  | Samaradorlik doirasi |      |
|--|--|----------------------|------|
|  |  | Maqsad               | Fakt |
| <b>1. QKMT rejalashtirish va faoliyatini baholash jarayoni</b> |  |                      |      |
| 1.   | KQKMT dasturini bajarilishi<br><i>(ISO 37001, 6.2 bandi)</i>   | ≥ 95%                | 70%  |
| 2.   | KQKMT ichki auditi rejasini bajarilishi<br><i>(ISO 37001, 9.2 bandi)</i>   | ≥95%                 | 100% |
| 3.   | Markaziy apparatida korrupsiya holatlari<br><i>(ISO 37001, 8.10 bandi)</i>   | 0                    | 0    |
| <b>2. Korrupsiyaviy xavf-xatarlarni boshqarish jarayoni</b>    |  |                      |      |
| 1.   | Past darajadan yuqori bo‘lgan xavf-xatarlarni boshqarish dasturini bajarilishi<br><i>(ISO 37001, 4.5 va 6.1 bandi)</i> | ≥ 95%                | 90%  |
| <b>3. Kadrlarni boshqarish jarayoni</b>                        |  |                      |      |
| 1.   | Belgilangan talablarga muvofiq xodimlarni ishga qabul qilish<br><i>(ISO 37001, 7.2.2.2 va 8.2 bandi)</i>               | 100 %                | 100% |



| №  | Samaradorlik ko'rsatkichi   | Samaradorlik doirasi |       |
|--|---|----------------------|-------|
|  |   | Maqsad               | Fakt  |
| 2.   | Faoliyat yo'nalishi bo'yicha xodimlarni malakasini oshirish<br>(ISO 37001, 7.2.1 va 7.3 bandi)  | 100 %                | 100 % |
| <b>4. Xaridlar jarayoni</b>  |   |                      |       |
| 1.   | Xaridlar reja – grafigini asoslanishi<br>(ISO 37001, 8.4 bandi)   | 100%                 | 100%  |
| 2.   | Tovar-material boyliklarning ortiqcha yoki kamomadi holatlari<br>(ISO 37001, 8.4 bandi)   | 100%                 | 100%  |
| <b>5. Tarkibiy bo'linmalarni (bo'ysunuvchi) boshqarish jarayoni</b>  |   |                      |       |
| 1.   | Chora-tadbirlar rejasiga muvofiq tarkibiy bo'linmalar faoliyatini monitoring qilish<br>(ISO 37001, 8.5.1 bandi)   | 100%                 | 90%   |
| 2.   | Quyi tizim bo'linmalarda tasdiqlangan korrupsiya holatlarini mavjudligi<br>(ISO 37001, 8.5.1 bandi)   | 0                    | 0     |
| <b>6. Sovg'alar berish va olish, mehmondo'stlik belgilarini qabul qilish, xayriya va homiylik hamda vakillik xarajatlarini amalga oshirish jarayonlari</b> |   |                      |       |
| 1.   | Sovg'alar berish va olishda, mehmondo'stlik belgilarini qabul qilishda qonunbuzilish holatlari mavjudligi<br>(ISO 37001, 8.7 bandi)                             | 0                    | 0     |
| 2.   | Xayriya va homiylik hamda vakillik xarajatlarini amalga oshirishda qonunbuzilish holatlarini mavjudligi<br>(ISO 37001, 8.7 bandi)                               | 0                    | 0     |
| <b>7. Murojaatlar bilan ishlash va xizmat tekshiruvlarini o'tkazish jarayoni</b>   |   |                      |       |
| 1.   | Korrupsiya holatlari bo'yicha kelib tushgan murojaatlarni va xizmat tekshiruvlarini xolisona ko'rib chiqilishini ta'minlash<br>(ISO 37001, 7.4 va 8.9 bandlari) | 100%                 | 100%  |

## **X. Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment (KQKMT) tizimini yanada rivojlantirish bo‘yicha takliflar va tadbirlar rejasi**

### **“Olmaliq KMK”AJning Korrupsiyaga qarshi kurashish va uning oldini olish yo‘nalishida 2025 yillar uchun belgilangan MAQSAD VA VAZIFALARI**

**1. Kombinatsion markaziy apparati bo‘linmalari hamda tarkibiy korxonalarda korrupsiyani tubdan yo‘qotishga erishish yo‘nalishida:** Kombinatsion va tarkibiy korxonalaridagi barcha (qamrov 100%) xodimlar tomonidan Manfaatlarni to‘qnashuviga oid Deklaratsiyalar, Xabarnoma va Rejestr yuritishni ta‘minlash. Test sinovlarini topshirgan rahbar va injener-texnik xodimlarning 90 % da - ijobiy natija qayd etilishiga erishish.

**2. Kombinatsion xodimlarining huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yanada yuksaltirish yo‘nalishida:** Test sinovlarini topshirgan rahbar va injener-texnik xodimlarning 90 % da – ijobiy natija qayd etilishiga erishish.

**3. Kombinatsion faoliyatida korrupsiyaning har qanday shakli va ko‘rinishlariga nisbatan mutlaqo toqatsizlik (murosasiz) munosabatni shakllantirish yo‘nalishida:** Ishlab chiqilgan va tarqatilgan targ‘ibot va tashviqot materiallari soni kamida - 4 donani tashkil qilishi lozim, videoroliklar soni - kamida 2 dona tashkil qiladi. Targ‘ibot va tashviqot Tarqatma materiallari A3 formatida Markaziy apparati binosining har bir qavatida, shuningdek MTTB boshqarmasi markaziy binosida, MTTB omborxonalarida, OMQT binosida hamda tarkibiy korxonalarining eng g‘ajum kamida 20 ta joyida o‘rnatiladi.

**4. Kombinatsion faoliyatida, barcha soha va yo‘nalishlarida korrupsiyaga qarshi kurashishda, korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning ustuvorligini e‘tirof etish hamda bunday chora-tadbirlarni Kombinatsion tizimida izchil joriy etish yo‘nalishida:** 2024 yil yakuni bilan (2025-yil, 5-martda) “Olmaliq KMK”AJning reyting baholash natijalarini eng kamida 91 ball to‘plash hamda Reytingda “Yaxshi” Yashil natija qayd etgan tashkilotlar guruhiga o‘tishga erishish.

**5. Kombinatsion tizimida korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni barvaqt aniqlash, ularga barham berish, ularning oqibatlari, korrupsiyaga olib keluvchi sabablar, shart-sharoitlar va omillarni bartaraf etish, korrupsiyaviy huquqbuzarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligi tamoyilini hech bir istisnalarsiz ta‘minlash yo‘nalishida:** Korrupsiyaviy xavf-xatar yuqori bo‘lgan xavf-xatarlar sonini 30% ga tushirish.

**6. 2025 yilning I-choragida Kombinatsion hamda uning tarkibiy korxonalarida joriy etilgan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini ISO 37001:2016 halqaro standartlariga muvofiqlashtirish hamda tegishli tasdiqlovchi halqaro sertifikatni qo‘lga kiritish.**

“Olmaliq KMK”AJ

Komplayens xizmati boshlig‘i v.v.b.

Sh.X. Jo‘rayev